

REFERAT

MAVZU: Hozirgi zamon dariy tilida hisob so‘zlar

Tadqiqotda dariy, o‘zbek va forsshunos olimlarning hozirgi zamon dariy tilidagi hisob so‘zlar mavzusiga oid qarashlari, hisob so‘zlarning o‘zbek tilida ifodalanishi o‘rganilgan, hamda hisob so‘zlar misollar bilan ko‘rib chiqilgan.

BAJARDI: Toshtemirova N.

QABUL QILDI: Alimova X. Z.

Hozirgi zamon dariy tilida hisob soʻzlar(numerativlar)

REJA:

KIRISH

I.BOB.

- 1.1. Hisob soʻzlarning semantik strukturasi
- 1.2. Dariy va oʻzbek tillaridagi hisob soʻzlarning guruhlariga boʻlinishi
- 1.3. Donabay hisob soʻzlar
- 1.4. Jamlovchi hisob soʻzlar

II. BOB.

- 2.1. Hisob soʻzlarning etimologik tasnifi
- 2.2. Asl dariy tiliga mansub hisob soʻzlar
- 2.3. Oʻzlashtirilgan integratsional hisob soʻzlar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish

O'sib kelayotgan yosh avlod taqdiriga hech kim hech qaragan emas. Bunda Oliy o'quv yurtlarining o'rni katta. Yoshlarni qay usulda o'qitish ularni tarbiyalash mustaqil mamlakatni yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunday Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, saviyamizni jahon asoslari darajasiga yetkazish, xalq ho'jaligida mutaxassislikka bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tarbiyasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir. Ilm ziyo salohiyati bu xalqning, vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir.

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mustaqil va sog'lom dunyoqarashga ega, zamonaviy bilimlarni egallagan, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilayotir. Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora shakllanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlar, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan. XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g'oyasi keng yoyildi. Bu bejiz emas. Chunki jahondagi ko'pgina mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, milliy tillar davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo'ldi.

Dariy tili 2,5 ming yillik tarixiga ega. Eroniy tillar guruhi bir necha o'nlab lahjalardan iborat bo'lib, ular fors, dariy, tojik nomlari bilan atalib, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Kavkazorti, Pokiston, Turkiya va boshqa mamalakatlar territoriyasida mavjuddir. Tarixdan

ma'lumki, X – XV asr sharq klassiklarining asarlari dunyoga mashhur bo'lgan davrdir. Bu davrda Afg'oniston va O'rta Osiyoda dariy zabon ulamo va shoirlar shunday asarlar yaratdilar, ularning asarlari dunyoga mashhur bo'ldi. Jumladan, Rudakiy, Samarqandiy, Robiya Balxiy, Jaloliddin Balxiy, Attor, Sanoiy, Hofiz, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy kabilar. O'zbekistonda dariy tilini o'rganish 1944 yildan beri o'rganila boshlagan. So'nggi vaqtda internet ma'lumotlariga ko'ra dariy tilining dunyo bo'yicha mavqei oshib bormoqda. U Rossiya, Germaniya, Amerika, Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Pokiston va Saudiya Arabistonda o'qitilmoqda. Dariy tilini o'rganishdan maqsad uni O'zbekistonning tashqi siyosatida qo'llashdan iboratdir.

Mavzuning dolzarbligi. Numerativlar masalasi o'zbek tilshunosligida ham, dariy tilshunosligida ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Numerativlar masalasiga qator tadqiqot ishlari mavjudligiga qaramasdan, ularning tub mohiyatlari hali yetarlicha ochib berilmagan.

Tilshunoslik fanining hozirgi davrida tillarni structural-tipologik plan asosida qiyoslashga katta e'tibor berilishiga qaramasdan, turli sistemaga mansub bo'lgan tillarning numerativlar masalasi sohasida bir qator ishlar qilingani yo'q.

Akademik V.V.Vinogradov turli sistemadagi tillarni qiyosiy o'rganishga yuksak baho berib, -“ Qarindosh tillarni tarixiy-qiyosiy metod asosida o'rganish bilan bir qatorda turli sistemadagi tillarni ham qiyosiy o'rganish mumkin va zarurdir” degan edi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bu mavzu dariy va o'zbek tillarida juda kam darajada o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotda asosiy ko'zda tutilgan maqsad taqqoslanayotgan tillardagi hisob so'zlar(numerativlar)ni klassifikatsiyasini o'rganish. Bunday masalaning hal etilishi ham amaliy jihatdan, ham nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega .

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi.

Dariy, o'zbek va forssunos olimlarning mavzuga oid qarashlari o'rganildi.

Hisob so'zlarning o'zbek tilida ifodalanishi ko'rib chiqildi.

Hisob so'zlar misollar bilan ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotni o'rganish mobaynida ma'lumot to'plash, qiyoslash, tahlil, tizimli yondashuv, umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan

umumiylikka kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariyva amaliy ahamiyati. Referat dariy tili grammatikasining qismi bo'lib, hisob so'zlarning tilda qo'llanilishini atroflicha o'rganib chiqish, ilmiy jihatlarini yoritishga mo'ljallangan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Referat kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat. Asosiy qism o'z mohiyatidan kelib chiqib 3 qismdan iborat.

I BOB.

1.1.Hisob soʻzlarning semantik strukturasi

Predmetning soniga koʻra belgisini ifodalab keladigan sanoq sonlar (dona sonlar) baʼzi vaqtda predmetlarning hisobini koʻsatuvchi soʻzlar-hisobsoʻzlari(numirativlar) bilan birga qoʻllanadi. Bu soʻzlar, asosan, sanalayotgan aniq predmetni koʻrsatmay oʻsha predmetni hisoblashda uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi. Dariy tilida numirativlar son va sanaluvchi predmetlar nomini bildirgan soʻzlar orasiga qoʻyilib, izofa belgisini qabul qilmaydi. Demak, numeratilar oʻz leksik maʼnosini qisman yoki batamom yoʻqotgan va sanaluvchi predmet kategoriyasini koʻrsatishga xizmat qiladigan soʻzlardir. Har bir guruh sanaluvchi soʻzlar uchun muayyan numerativlar ishlatiladi

Tadqiqotimiz hisob soʻzlarga bagʻishlanganligi sababli asosiy izlanish manbai soʻzdir. Tilshunoslikda eng koʻp ixtiloflarga sabab boʻlgani ham soʻz tushunchasi boʻlsada, biroq harfiy tillar uchun soʻz tushunchasi umuman aniq koʻrsatilgan, masalan A.Xojievning "Lingvistik atamalarining izohli lugʻati" da [29:81] soʻzining tarifini topishimiz mumkin.

Sanoq sonlar bilan qoʻllanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan oʻzlar hisob soʻzlari(numirativlar) deb ataladi. Bunday soʻzlar sanoq son bilan sanaladigan narsalarni bildiradigan soʻzlar oʻrtasida keladi: besh yuz soʻm pul, yuz gramm yogʻ, yuz yil vaqt. Bunday soʻzlar aslida ot turkumiga mansub boʻlib, oʻz lugʻaviy maʼnolarini qisman yoʻqotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan boʻlib qolgan soʻzlardir.

Afgʻon hududidan tashqarida yozilgan dariy tili grammatikalarida hisob soʻzlar "numirativlar" (eng classifier) atamasi bilan belgilanadi. Afgʻon mualliflari grammatikalarida nafaqat "numerativ" tushunchasi tasvirlangan, balki umuman hisob soʻzlarining grammatik va leksik xususiyatlari yetarli darajada ochib berilmagan. Zamonaviy grammatika mualliflar faqatgina numirativlarni hisoblab oʻtadilar. Zamonaviy dariy grammatikalarida, numirativlar, ularning xususiyatlari numirativli soʻz birikmalari, ularning tasnifi haqida hech nima deyilmaydi.

Haqiqtdan ham numirativlar hisob birligi sifatida nomoyon boʻladi va shu bilan birga xuddi shu paytda boshqa otlardan farqlanadigan alohida ot boʻlib kelishi mumkin, boshqa tomondan numirativlar aniqlovchining alohida turi sifatida boʻladi. Qanday boʻlmasin shu

belgilarning har biri alohida olingan holda ham bizga numirativlarning mohiyati haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Shuning uchun ularning yagona yaxlitlikka birlashtirish lozim. Atamashunoslikdagi kelishmovchilikning o'zi ham bu grammatik hodisa hozirgacha ham o'rganilmaganligi haqida guvohlik beradi.

Xulosa qilib aytganda, dariy tilidagi hisob so'zlar miqdorini aniqlash ularni matnda va nutqda uchrash miqdorini bilish, albatta, sifatlash va ta'riflashda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

1.2.Dariy va o'zbek tillaridagi hisob so'zlarning guruhlarga bo'linishi

Dariy tilida:

1. Uy-ro'zg'or va boshqa predmetlar uchun-دانه dana 'dona' تا ta

Masalan:

سی تا میز 'uchta stol'

شش دانه تخم 'besh dona tuxum'

2.Insonlar uchun-نفر Nafar ,تن tan:

شش نفر محصل 'olti nafar student'

چهار تن مرد 'To'rtta kishi'

3. Hayvonlar uchun- راس 'bosh'

هفت راس گوسفند 'Yetti bosh qo'y'

4. Kitoblar uchun-جلد 'jild'

یک جلد کتاب 'Bir jild kitob'

5. Juft predmetlar uchun- جفت 'juft, par'

دو جفت جراب 'Ikki juft paypoq'

6. Kiyimlar uchun-دست 'dast'

دو دست دریشی 'Ikkita kostyum'

7.Uy va imoratlar uchun- باب bob-darbandدربند

نه باب حویلی 'to'qqizta hovli'

شش باب خانه 'oltita uy'

یک دربند باغ 'bitta bog''

8.Gilam, adyol, teri hamda qog'oz, karta, chizmalar uchun-تخته- taxta

یک تخته نمد 'bitta namat'

9. Mashina va arava uchun-عَرَادَه-g`ildirak

دە-عَرَادَه موْتِر-‘o`nta avtomashina’

10. Qilich, xanjar kabi kabi sovuq qurollar uchun-قَبْزَه-qabza

شش-قَبْزَه شَمشِير-‘olti dona qilich’

11. Tegirmon uchun-حَجَر-hajar

دو حَجَر اسياب-‘ikkita tegirmon’

12. Uchoq va kemalar uchun-فِرَوْنَد-farwand

تو-رْتَا سَامَالْيُوْت-‘to`rtta samalyot’.

O‘zbek tilida:

1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan: dona, nusxa, tub, bosh, nafar;

2) butunning qismini hisoblash uchun: parcha, varoq, burda, og‘iz, luqma, siqim, tilim, poy, toqa, bo‘lak, shingil;

3) to‘dalab ko‘rsatuvchi: gala, to‘p, guruh, to‘da, dasta, bog‘, quchoq, shoda, xovuch;

4) juftlab ifodalovchi: juft, pora;

5) og‘irlikni o‘lchaydigan: gramm, kilogramm, sentner, tonna, misqol, pud, botmon, qadoq, paysa;

6) uzunlik o‘lchovini bildiradigan: millimetr, santimetr, kilometr, chaqrim, tosh(eskirgan), gaz, qarich, qadam;

7) yosh o‘lchovni bildiradigan: yashar, yoshlik, kunlik, oylik;

8) vaqt o‘lchovini bildiradigan: soniya, kun, soat, hafta, yil, oy;

9) qiymat o‘lchovini ifodalaydigan: so‘m, tiyin, tanga, miri, paqir.

Bundan tashqari, quyidagi hisob so‘zlari son va fe'l orasida kelib, bu harakat miqdorni bildiradi: marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf'a.

1.3. Donabay hisob so‘zlar.

Dariy tilida miqdor bildiruvchi sonlar odatda hisob so‘zlar deb ataluvchi so‘zlar bilan qo‘llanilib, predmetning son miqdori nechtaligini, donasini anglatadi. Hisob so‘zlar son va sanaluvchi so‘zlar orasida qo‘yiladi. Numerativlardan so‘ng izofa qo‘yilmaydi. Masalan;

Ikki nafar talaba-دو نَفَر مَحْصَل

Ikkita kitob-دو تَا كِتَاب

Donabay hisob soʻzlar donalab hisoblanadigan otlar bilan qoʻllaniladigan hisob soʻzlardir. Donalab hisoblanadigan otlarga tirik jonzotlarni buyum va narsalarni bildiruvchi soʻzga kiradi. Yuqorida keltirilgan misollardagi "نفر -kishi, nafar" va "دona" hisob soʻzlari eng universal hisob soʻzlar hisoblanadi. Biz bu misolda "دona" hisob soʻzini "جld-jild, tom" numirativ oʻnida ishlatilayotganini koʻrishimiz mumkin. Donabay hisob soʻzlardan foydalanish jonli va jonsiz narsalarning miqdori va sanalish mohiyatini beradi, shuning uchun numerativ bilan ifodalangan otlar oʻz tashqikoʻrinishi va formasiga asosan numirativ tanlaydi.

Shu bilan bir qatorda shaxslarga nisbatan "تا" numirativi ham ishlatilmoqda.

Masalan:

متاسفانه هنوز ان سی نفر مهمان تشریف نیاورده اند

Afsuski, hali ham oʻsha uch mehmon kelmabdi.

Donabay soʻzlar klassik davr tilida keng qoʻllaniladi. Hozirgi zamon dariytilida bu turdagi hisob soʻzlarining ishlatilishi darajasi sezilarli ravishda kamaydi. Oʻz ma'nosiga ega boʻlgan har bir numerativ inson, hayvon va narsa buyumlarni ifodalovchi konkret ma'noli soʻzlar guruhi bilan bogʻliq holda ishlatiladi. Donabay hisob soʻzlar faqatsanaluvchi birlik sifatida namoyon boʻlgan soʻzlar bilan munosabatga kirishadi. Jonli va jonsiz predmetlarni anglatuvchi oʻnlab numertivlar mavjud, lekin barchasi hozirgi zamon dariy tilida ishlatilavermaydi.

Bundan tashqari, donabay hisob soʻzlarning ishlatilishi fakultativ xarakterga ega: ular umuman ishlatilmasligi yoki tushib qolishi ham mumkin.

Masalan:

سی نفر کارگر- Uch nafar ishchi

دو جلد کتاب- Ikkita kitob

Donabay hisob soʻzli birikmaning komponentlarimazmun nuqtai nazardan bir-biriga tobedir, ya'ni son sanalishiga ehtiyoj boʻlsa numerativ sanalishini aniqlab beradi. Donabay hisob soʻz koʻproq sanalishi bilan bogʻliq, chunki har qanday holatda ham u sanalishining aniqlovchisi boʻladi, uning shakli, oʻxshashligi yoki qismini aniqlab beradi. Agarda son sonini aniqlab bersa, numerativ oʻzining ma'no jihatiga qarab sanalishining toifasini aniqlab beradi.

Agarda qandaydir sababga ko'ra, sanalish donabay hisob so'zli birikmadan tishib qolsa, biz donabay hisob so'z yordamida sanalishi qanday shaklga ega ekanligi, qanday shakl va turga mansubligini taxminan bilishimiz mumkin.

دوقيصنا (sanalishsiz) so'z birikmasi sanalishining kaft bilan ushlanadigan bir narsa ekanligi ko'rsatadi. Son bir tomondan numerativ bilan bo'g'liq bo'lsa, boshqa tomondan esa sanalishi bilan bog'liq. Agarda bu mazmuniy tobelikni aniq ko'rsatmoqchi bo'lsak, shunday jadvalga ega bo'lamiz.

Son+numirativ+sanalishi

Bunday model har bir turdagi so'zlarga tegishli hisoblanadi. Son va sanalishi o'rtasida donabay hisob so'z va sanalishi o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik yo'qdir. L. Jirkov quyidagini ta'kidlab o'tadi: "Bu yerda numerativ aksariyat hollarda deyarli majburiydir".

Numerativlarning majburiyligi yoki deyarli majburiyligi haqidagi mulohaza bizning fikrimiz bilan to'liq mos keladi. Hisob so'z va sonning sanalishidan tobeligi majburiy, numerativli so'z birikmada ikkita birlik bitta birlikni ketidan keladi. Bu guruhli tobelik yoki so'zlarning birlashuvi komponentlari o'rtasida bevosita mazmuniy muvofiqlikka ega bo'lgan konstruksiyani yaratadi. Ammo bu muvofiqlik to'liq emas, chunki sanalish ko'plikda bo'lsa ham hisob so'zlar har doim birlikda qoladi. Agarda

so'z birikmasidagi kabi son ko'plikda tursa, sanalishi va hisob so'z birlikda qoladi.

1.4. Jamlovchi hisob so'zlar

Jamlovchi hisob so'zlar ko'pincha juft yoki bir guruh donala b sanaladigan hamda umumiylik, mavhumlik ma'nosini o'zida aks ettirgan otlar bilan birga ishlatiladigan hisob so'zlardir. Jamlovchi hisob so'zlar sanalayotgan otning umumiy hisobini, hajmini komplektini ifodalab beruvchi so'zlar sifatida yuzaga keladi. Jamlovchi hisob so'zlarning o'zi ham jamlik, umumiylik ma'nolarini bildirib jamlovchi otlarning miqdorni ifodalashda aniq bir o'ringa chiqdi.

Shunday qilib, jamlovchi hisob so'zlar bir guruh, to'da yoki komplekt ma'nolarini ifodalovchi so'zlar yordamida son va otlar orasiga qo'yiladi.

II BOB

2.1. Hisob soʻzlarning etimologik tasnifi

Har bir tilda lugʻat birligining tahlil qilinishi soʻzning kelib chiqish tarixi, qaysi tildan mazkur tilga oʻzlashganligi va soʻzning tub maʼnosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Soʻzlarni etimologik tasnif qilishda, avvalambor, lugʻat, izohli lugʻatlarga murojaat qilinadi. Biz ham tadqiqotimiz markazida turgan hisob soʻzlarning qaysi tilga mansubliginiva ular ana shu tillarda qanday maʼnolar bildirishini ushbu bob orqali tadbiq qilib berishga harakat qildik. Biz olib borgan tadqiqotlari hisob soʻzlarni quyidagicha etimologik tasnif qilishga olib keldi: Asl dariy tiliga mansub hisob soʻzlar va boshqa tillardan oʻzlashgan hisob soʻzlar. Shuningdek, boshqa tillardan oʻzlashgan hisob soʻzlarni oʻz navbatida ikki guruhga boʻldik.

1. Arab tilidan oʻzlashgan hisob soʻzlar
2. Oʻzlashtirilgan integrasional hisob soʻzlar.

2.2. Asl dariy tiliga mansub hisob soʻzlar

Tarixdan maʼlumki, Buyuk Ipak Yoʻli deb nom olgan karvon manzillar Afgʻoniston va Eron hududidan ayniqsa, Kobul, Isfahon va tabrizdan oʻtgan. Bu esa to asrlargacha Afgʻoniston hududida turli xalqlar orasida savdo-sotiq, oldi-berdilar, oʻzaro tavar almashuvlar amalga oshirilgan va ogʻzaki tilda umumiy birlikni bildiruvchi soʻzlar ishlatilgan. Bunday soʻzlar orasida asosan donabay va turli oʻlchov birligini koʻrsatuvchix hisob soʻzlar juda oʻrinli qoʻllanilgan. Bu soʻzlar yillar davomida mukammallashib, tilda anʼanaviylik xususiyatini hosil qilgan. Demak, dariy tiliga mansub hisob soʻzlarga anʼanaviy dariycha oʻlchov birliklarini bildiradigan soʻzlar kiritiladi.

Aynan dariy tiliga oid hisob soʻzlar dariy tilida koʻpincha oʻz mystaqilmaʼnolariga ega ekanliklari bilan ajralib turadi. Ammo bu taʼrif faqat donabay hisob soʻzlar haqida gap ketayotganligidagina oʻz ifodasini topadi. Donabay hisob soʻzlar, jamlovchi hisob soʻzlar va turli oʻlchov birligini koʻrsatuvchi hisob soʻzlar negizini asosan asl dariy tiliga mansub donabay hisob soʻzlar tashkil etadi.

Masalan:

Insonlar uchun:- نفر nafar

Kiyimlar uchun: دست -dast

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'p yillar mobaynida muammalada bo'lgan son+ot hisob konstruksiyalari hozirgi kungacha o'z an'anaviyligini yo'qotmay, har qanday hisob birikmalarida asl dariycha hisob so'zlarni ishlatish odat tusiga kirgan.

2.3. O'zlashtirilgan integrasional hisob so'zlar

O'zlashtirilgan o'lchov birligi deb bir o'zga tildan qabul qilingan o'lchov birliklarini yoki tillararo yagona bo'lgan metrik sistemasining o'lchov birliklari tushuniladi, masalan, "metr", "tonna" va boshqalar. Ushbu o'zlashtirilga o'lchov birliklarini o'zga til o'lchov birliklaridan farq qilishi kerak, chunki o'zlashtirilgan o'lchov birliklarining orasida o'zga til o'lchov birliklari ham bor, masalan, yuqorida keltirilgan misollarimizdan ikkinchisi asli o'zga til o'lchov birligi aynan ingliz tilidagi og'irlik o'lchovi shu bilan birga u metrik sistemasiga og'irlik o'lchovi sifatida qabul qilingan. Biroq shunday o'zga til birliklari borki, ular metrik sistemasiga kiritilmagan va Afg'onistonda o'lchov birligi sifatida qabul qilinmagan.

O'zlashtirilgan integrasional hisob so'zlar asosan ingliz, fransuz, yunon va rus tillaridan o'zlashgan bo'lib, quyida biz eng ko'p qo'llanadigan hisob so'zlar ni keltirib o'tamiz.

Masalan: Uzunlik o'lchovlari: میلی گرم سانی متر میلومیتر

Bundan tashqari chet el adabiyotini dariy tiliga tarjima qilish jarayonida "fut" kabi o'zga til birliklari ham kuzatiladi. O'zlashtirilgan integrasional o'lchov birliklari Afg'onistonda keng miqyosda ishlatiladi, masalan ichki bozorda kilogramm, metr va shunga o'xshash o'lchov birligini ko'rsatuvchi hisob so'zlar qo'llanishi ko'paymoqda, qolganlari esa fan va texnika sohasida o'z o'rnini topgan.

XULOSA

Mazkur ishimizda hozirgi zamon dariy tilida hisob soʻzlarning maʼno turlarini, hisob soʻzlarning etimologiyasi va tasnifi, ham hisob soʻz , ham ot vazifasini bajarib kelishinikeltirilgan misollar bilan tadqiq etdik. Ushbu mavzuni koʻrib chiqishda bizda quyidagicha xulosalar paydo boʻldi.

-Oʻtmishda qoʻllanilgan baʼzi bir hisob soʻzlar istimoldan butunlay chiqib ketdi, chunki ularning sanalishlari, bugungi kunda qoʻllanilmydi. Ularning baʼzilari yoʻq boʻlib ketmagan, balki ular boshqa sanalishlar bilan birikadi.

-Anaʼnaviylik sababli hozirgi kunda isteʼmoldan chiqayotgan hisob soʻzlar, yaʼni yaqin kelajakda ular oʻrnini toʻliq bosadigan hisob soʻzlarning mavjudligi. Masalan ularning oʻrindoshlari:

-ishlatilish jihatdan tor boʻlgan numerativlar ham mavjud.:

-hisob soʻzlarning vazifasi sanalishining soni, hajmi, oʻlchovi va miqdorini aniqlaydigan yordamchi soʻz boʻlib kelishi, uning shakl va toifasini ifodalab berishi hisoblanadi.

-hisob soʻz ishtirok etgan birikmalarda aksariyat hisob soʻzlarning oʻrniga boshqa soʻz qoʻllanilganda birikma semantika nuqtai nazaridan oʻzgarmasa, demak, ular haqiqiy hisob soʻzlar sanaladi.

-hisob soʻzlar soʻz birikmalarida ishtirok etganda ikki xil shaklda konstirusiya hosil qilishi mumkin: (son-hisob soʻz-sanalishi) va (sanalishi- son-hisob soʻz):

Aniqlanga numirativlarning strukturasini jamlovchi hisob soʻzlar va turli oʻlchov birligini koʻrsatuvchi hisob soʻzlar guruhiga boʻlgan holda oʻrgandik:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bizning hozirgi zamon dariy tilida hisob soʻzlar boʻyicha olib brogan bu tadqiqotimiz kelajakda hisob soʻzlarni chuqurroq oʻrganishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Nazariy manbalar:

1. Баскаков Н.А., Хамзаев М.Я., Чарияров Б. Грамматика туркинского языка, часть 1, фонетика и морфология, Алихабад, 1970.
2. Баскаков Н.А. ва бошқалар Умумий тиншунослик. Т., 1975
3. Грамматика осетинского языка, Т.1. Фонетика и Морфология. Ордоникидзе, 1963
4. Оранский И.М. Введение в иранскую. М., 1988.
5. Пейсигов Л. С. Синтаксис персидского языка. М., 1963
6. Рубинчик Ю.А. Современный персидский язык. М., 1960
7. Рубинчик. Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. М., 2001.
8. Хижиёв А. Лингвистик терминларнинг изохли лугати. Т., 1985
9. Хожиёв А. Тиншунослик терминларининг изохли лугати. Т., 2002
10. Хамдамов П.У. Хозирги узбек тилида номкритивлар. Т., 1983
11. Узбек тили грамматикаси. 1 Морфология. Т., 1975
12. Узбек тили грамматикаси. 2 Синтаксис. Т., 1976
13. Узбек тили изохли лугати .2 том . Синтаксис. Т., 1981.

Lugʻatlar:

15. Дари – русский словарь.- М., 1978
16. Персидско – русский словарь. – М., 1983